# O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2026-YIL MAXSUS SON

# ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

# UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 SPECIAL ISSUE

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2026
DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.SI.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.

doi
Crossref
Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"O'zbekiston qonunchiligi tahlili" ilmiy-tahliliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi si Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

**Nashr bo'yicha mas'ul:**
O. Choriyev

**Muharrirlar:**
E. Mustafayev, Y. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, X. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvaliyeva, E. Sharipov

**Musahhih:**
M. Tursunov

**Texnik muharrir:**
U. Sapayev

**Dizayner:**
D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** lawreview.uz
**E-mail:** uzlawreview@tsul.uz

**Nashriyot litsenziyasi**
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 26-avgustda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 13,2.
Adadi: 100. Buyurtma: № 82.

**Bosmaxona litsenziyasi**
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 37.

**© Toshkent davlat yuridik universiteti**

## TAHRIR HAY'ATI

### BOSH MUHARRIR

***S. Gulyamov** – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquq va texnologiyalar sho'basi professori, yuridik fanlar doktori*

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

***I. Rustambekov** – Toshkent davlat yuridik universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari*

***Sh. Xo'jayev** – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori – mas'ul muharrir*

***O. Oqyulov** – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori*

***A. Ener** – Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh kotibi o'rinbosari, yuridik fanlar doktori*

***M. Bungenberg** – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori*

***S. Tatar** – Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori*

***J. Peeroo** – Sarbonna universiteti professori, "Stone 36" yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori*

***B. Musayev** – Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor*

***Sh. Saydullayev** – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq sho'basi professori, yuridik fanlar nomzodi*

***D. Habibullayev** – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor*

***S. Bozorov** – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho'basi professori, yuridik fanlar doktori*

***I. Bekov** – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor*

***V. Ergashev** – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor*

***Sh. Joldasova** – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori*

***O. Xazratqulov** – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho'basi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor*

***D. Suyunova** – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori*

***D. Maxkamov** – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti dekani, professor, yuridik fanlar doktori*

***D. Babadjanova** – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho'basi professori v.b., yuridik fanlar doktori*

***A. Matmurotov** – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho'basi mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

***E. Rahmatov** – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

***M. Turdialiyev** – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori*

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Научно-аналитическийж урнал «Обзор законодательства Узбекистана»зарегистрированАгентством печатииинформацииУзбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень ж урналовВысшейаттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Авторские права принадлеж ат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространениеивоспроизведение материаловж урналаосуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Ответственный за выпуск:**
О. Чориев

**Редакторы:**
Э. Мустафаев, Е. Ярмолик,
М. Шарифова, Ш. Бекназарова,
Х. Юлдашева, Ф. Усмонова,
К. Абдувалиева, Э. Шарипов

**Корректор:**
М. Турсунов

**Технический редактор:**
У. Сапаев

**Дизайнер:**
Д. Раж апов

**Адрес редакции:**
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** lawreview.uz
**E-mail:** uzlawreview@tsul.uz

**Издательская лицензия**
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию 26.08.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 13,2. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 82.

**Лицензия типографии**
от 29.11.2023 № 174626

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, дом 37.

**© Ташкентский государственный юридический университет**

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

### ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

***С. Гулямов*** *– профессор сектора права и технологий Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук*

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

***И. Рустамбеков*** *– проректор Ташкентского государственного юридического университета по учебной работе, доктор юридических наук, профессор – заместитель главного редактора*

***Ш. Хужаев*** *– заведующий сектором права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам – ответственный редактор*

***О. Окюлов*** *– профессор сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук*

***А. Энер*** *– доцент Университета Анкары Хаджи Байрам (Турция), заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам, доктор права*

***М. Бунгенберг*** *– директор Европейского института Саарского университета, доктор права*

***С. Татар*** *– профессор Университета Анкары Йылдырым Беязит (Турция), доктор права*

***Ж. Пироо*** *– профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36, доктор права*

***Б. Мусаев*** *– декан факультета бизнес-права и судебной защиты Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор*

***Ш. Сайдуллаев*** *– профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор*

***Д. Хабибуллаев*** *– заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор*

***С. Бозоров*** *– профессор сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета (Registrar's Office), доктор юридических наук*

***И. Беков*** *– заведующий сектором конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор*

***В. Эргашев*** *– заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор*

***Ш. Джолдасова*** *– ведущий научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам*

***О. Хазраткулов*** *– заведующий сектором международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор*

***Д. Суюнова*** *– профессор сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук*

***Д. Махкамов*** *– декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор*

***Д. Бабаджанова*** *– и. о. профессора сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук*

***А. Матмуротов*** *– заведующий сектором судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам*

***Э. Рахматов*** *– декан факультета частного права и сравнительного правоведения Ташкентского государственного юридического университета по делам молодёжи и духовно-просветительской работе, доктор философии по юридическим наукам, доцент*

***М. Турдиалиев*** *– заместитель начальника управления юридического образования и судебной экспертизы Министерства юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, доктор философии по юридическим наука*

**FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"Uzbekistan Law Review" scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Publication Officer:**
O. Choriev

**Editors:**
E. Mustafaev, E. Yarmolik,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova,
Kh. Yuldasheva, F. Usmonova,
K. Abduvalieva, E. Sharipov

**Proofreader:**
M. Tursunov

**Technical editor:**
U. Sapaev

**Designer:**
D. Rajapov

**Publishing department address:**
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** lawreview.uz
**E-mail:** uzlawreview@tsul.uz

**Publishing license**
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.08.2026.
Paper size: A4.
Cond.p.f: 13,2.
Units: 100. Order: № 82.

**Printing house license**
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

**© Tashkent State University of Law**

## EDITORIAL BOARD

### EDITOR-IN-CHIEF

***S. Gulyamov*** *– Professor of the Department of Law and Technologies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law*

### MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

***I. Rustambekov*** *– Deputy Rector for Academic Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor - Deputy Editor-in-Chief*

***Sh. Khujaev*** *– Head of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor*

***O. Okyulov*** *– Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law*

***A. Ener*** *– Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law*

***M. Bungenberg*** *– Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law*

***S. Tatar*** *– Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of Law*

***J. Peeroo*** *– Professor of the University of Sorbonne, lawyer of the law firm Stone 36, Doctor of Law*

***B. Musaev*** *– Dean of the Faculty of Business Law and Judicial Protection of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor*

***Sh. Saydullaev*** *– Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences*

***D. Habibullaev*** *– Head of the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor*

***S. Bozorov*** *– Professor of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law*

***I. Bekov*** *– Head of the Department of Constitutional Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor*

***V. Ergashev*** *– Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor*

***Sh. Joldasova*** *– Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law*

***O. Khazratkulov*** *– Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences, Professor*

***D. Suyunova*** *– Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law*

***D. Mahkamov*** *– Dean of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor*

***D. Babadjanova*** *– Acting Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law*

***A. Matmurotov*** *– Head of the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor*

***E. Rahmatov*** *– Dean of the Faculty of International Law and Comparative Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor*

***M. Turdialiyev*** *– Deputy Head of the Department of Legal Education and Forensic Examination of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law*

# MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

8 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**
Moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha nizolar yuzasidan ma’muriy sud ishlarini yuritish muammolari

18 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Bandlik sohasidagi ommaviy-huquqiy nizolarni ma’muriy sudlarda ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari

27 **G‘OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va boshqarishning nazariy-huquqiy asoslari

34 **AVEZOVA ELEONORA PARAXATOVNA**
O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy organlari tomonidan ma’muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat)ni amalga oshirish ustidan sud nazorati

42 **NAZAROV O‘TKIR ERKINOVICH**
Yevropa Ittifoqi davlatlarida ma’muriy tartib-taomillar institutining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

56 **RAHMONOV OTABEK QO‘CHQOR O‘G‘LI**
Korporativ huquq subyektlarini ixtiyoriy usulda qayta tashkil etishning nazariy va amaliy muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

62 **NARZULLAYEV OLIM XOLMAMATOVICH**
Iqlim o‘zgarishi sharoitida “yashil” ish o‘rinlari va yoshlar ta’limini uyg‘unlashtirish: O‘zbekiston tajribasi

76 **MAMAYUSUPOV OYATBEK A’ZAMJON O‘G‘LI, JUMASHEV BEXRUZ ALISHEROVICH**
Ekologiyani muhofaza qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati: O‘zbekiston va Xitoy tajribasi

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

84 **ZOILBOYEV JAVLON KARIMJON O‘G‘LI, BERDIQULOVA DIYORA DONIYOR QIZI**
Ijtimoiy tarmoqlarda kiberbulling (kiberzo‘ravonlik) va huquqiy javobgarlik

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

93 **IBODULLAYEV SAYIDKOMIL BEKPO‘LAT O‘G‘LI**
Ko‘p tomonlamalikdan bir tomonlamalikka: JST huquqiy tizimi inqirozi va uning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy savdoga ta’siri

HUQUQNI SOHALARARO TADQIQ ETISH

104 **RAMAZONOV NODIR NORMURODOVICH**
Sofoklning “Antigona” tragediyasida tabiiy va pozitiv huquq o‘rtasidagi kurashning badiiy talqini

109 **BOZOROVA NASIBA PO‘LOTJONOVNA**
Yuridik ta’limda Komil Sindarovning “Qimmatga tushgan xato” qissasini o‘qitish

# СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 **ЛИ АДИК АЛЕКСАНДРОВИЧ**
Проблемы административного судопроизводства по спорам о финансовых санкциях

18 **ЖУРАЕВ ШЕРЗОД ЮЛДАШЕВИЧ**
Особенности рассмотрения публично-правовых споров в сфере занятости в административных судах

27 **ГОЗИЕВ КОЗИМБЕК ЖОВЛОНБЕКОВИЧ**
Теоретико-правовые основы регулирования и управления деятельностью высших образовательных организаций

34 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Судебный контроль за осуществлением административного усмотрения (дискреционного полномочия) административными органами Республики Узбекистан

42 **НАЗАРОВ УТКИР ЭРКИНОВИЧ**
Тенденции и перспективы развития института административных процедур в европейских государствах

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

56 **РАХМОНОВ ОТАБЕК КУЧКОР УГЛИ**
Теоретические и практические проблемы добровольной реорганизации субъектов корпоративного права

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

62 **НАРЗУЛЛАЕВ ОЛИМ ХОЛМАМАТОВИЧ**
Соответствие «зелёных» рабочих мест и образования молодёжи в условиях изменения климата: опыт Узбекистана

76 **МАМАЮСУПОВ ОЯТБЕК АЪЗАМЖОН УГЛИ, ЖУМАШЕВ БЕХРУЗ АЛИШЕРОВИЧ**
Деятельность негосударственных некоммерческих организаций в сфере охраны окружающей среды: опыт Узбекистана и Китая

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

84 **ЗОИЛБОЕВ ЖАВЛОН КАРИМЖОН УГЛИ, БЕРДИКУЛОВА ДИЁРА ДОНИЁР КИЗИ**
Кибербуллинг (кибернасилие) в социальных сетях и юридическая ответственность

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

93 **ИБОДУЛЛАЕВ САЙИДКОМИЛ БЕКПУЛАТ УГЛИ**
От многосторонности к односторонности: кризис правовой системы ВТО и его последствия для региональной торговли в Центральной Азии

МЕЖОТРАСЛЕВОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРАВА

104 **РАМАЗОНОВ НОДИР НОРМУРОДОВИЧ**
Художественная интерпретация противостояния естественного и позитивного права в трагедии Софокла «Антигона»

109 **БОЗОРОВА НАСИБА ПУЛОТЖОНОВНА**
Преподавание повести Комила Синдарова «Жажда мести» в юридическом образовании

# CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

8 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**
Problems of administrative judicial proceedings regarding financial sanctions disputes

18 **JURAEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Peculiarities of considering public law disputes in the field of employment in administrative courts

27 **GOZIEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Theoretical and legal foundations of regulation and management of the activities of higher educational institutions

34 **AVEZOVA ELEONORA PARAKHATOVNA**
Judicial control over the implementation of administrative discretion (discretionary authority) by the administrative authorities of the Republic of Uzbekistan

42 **NAZAROV UTKIR ERKINOVICH**
Trends and prospects for the development of administrative procedures in the countries of the European Union

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

56 **RAKHMONOV OTABEK KUCHKOR UGLI**
Theoretical and practical problems of voluntary reorganization of subjects of corporate law

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

62 **NARZULLAEV OLIM KHOLMAMATOVICH**
Aligning green jobs and youth education in the context of climate change: evidence from Uzbekistan

76 **MAMAYUSUPOV OYATBEK AZAMJON UGLI, JUMASHEV BEKHRUZ ALISHEROVICH**
Activities of non-governmental non-profit organizations in environmental protection: the experience of Uzbekistan and China

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

84 **ZOILBOEV JAVLON KARIMJON UGLI, BERDIQULOVA DIYORA DONIYOR KIZI**
Cyberbullying (cyber violence) on social media and legal liability

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

93 **IBODULLAEV SAYIDKOMIL BEKPULAT UGLI**
From multilateralism to unilateralism: the crisis of the WTO legal system and its implications for regional trade in Central Asia

INTERDISCIPLINARY STUDY OF LAW

104 **RAMAZONOV NODIR NORMURODOVICH**
Artistic interpretation of the struggle between natural and positive law in Sophocles’ tragedy “Antigone”

109 **BOZOROVA NASIBA PULOTJONOVNA**
Teaching Komil Sindarov’s short story “Lust for Revenge” in legal education

Kelib tushgan / Получено / Received: 17.07.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 12.08.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.08.2026

**DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.uzlawrev.3.SI./VYQD4670**
**UDC: 343.4:004.738.5(045)(575.1)**

# IJTIMOIY TARMOQLARDA KIBERBULLING (KIBERZO'RAVONLIK) VA HUQUQIY JAVOBGARLIK

**Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li,**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi shoʻbasi katta oʻqituvchisi
ORCID: https://orcid.org/0000-0001-9656-7463
e-mail: jzoilboyev@gmail.com

**Berdiqulova Diyora Doniyor qizi,**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-4274-8386
e-mail: berdiqulovadiyora90@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Mazkur tadqiqot axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammo – ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbulling (kiberzo'ravonlik) holatlari, ularni tartibga solish hamda javobgarlik mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy tahlil, milliy qonunchilik va xalqaro hujjatlar tahlili hamda milliy va xorijiy qonunchilik (Yevropa) tajribalarini o'rganish metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining kiberbulling tushunchasi va ushbu qilmish uchun javobgarlik choralari haqidagi xabardorlik darajasini aniqlash maqsadida sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida onlayn huquqbuzarliklar asosan an'anaviy tuhmat, haqorat va shaxsiy daxlsizlikni buzish normalari doirasida baholanadi. Maqola yakunida kiberzo'ravonlikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida qonunchilikka maxsus normalarni kiritish, jabrlanuvchilarni huquqiy himoya qilish tizimini takomillashtirish hamda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kiberbulling, kiberzo'ravonlik, ijtimoiy tarmoqlar, huquqiy javobgarlik, shaxsiy daxlsizlik*

## КИБЕРБУЛЛИНГ (КИБЕРНАСИЛИЕ) В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ И ЮРИДИЧЕСКАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

**Зоилбоев Жавлон Каримжон угли,**
старший преподаватель сектора административного и финансового права
Ташкентского государственного юридического университета

**Бердикулова Диёра Дониёр кизи,**
студентка факультета меж дународного права и сравнительного правоведения
Ташкентского государственного юридического университета

***Аннотация.*** *Настоящее исследование посвящено актуальной социально-правовой проблеме, обусловленной стремительным развитием информационных технологий и социальных сетей, – кибербуллингу (кибернасилию) в социальных сетях, его правовому регулированию и механизмам юридической ответственности. В исследовании использованы методы сравнительно-правового анализа, анализа национального законодательства и международно-правовых актов, а также изучения отечественного и зарубежного (европейского) опыта правового регулирования. В целях определения уровня осведомлённости пользователей социальных сетей о понятии кибербуллинга и мерах ответственности за его совершение был проведён социологический опрос. Проведённый анализ свидетельствует, что в действующем законодательстве Республики Узбекистан правонарушения, совершаемые в онлайн-среде, преимущественно квалифицируются в рамках традиционных норм об ответственности за клевету, оскорбление и нарушение неприкосновенности частной жизни. В заключение статьи сформулированы научно-практические предложения и рекомендации по включению в законодательство специальных норм, совершенствованию системы правовой защиты потерпевших, а также повышению правосознания и правовой культуры населения в целях усиления эффективности противодействия кибернасилию.*

***Ключевые слова:*** *кибербуллинг, кибернасилие, социальные сети, юридическая ответственность, неприкосновенность частной жизни*

## CYBERBULLYING (CYBER VIOLENCE) ON SOCIAL MEDIA AND LEGAL LIABILITY

**Zoilboev Javlon Karimjon ugli,**
Senior Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law

**Berdiqulova Diyora Doniyor kizi,**
Student of the Faculty of International Law and Comparative Law
at Tashkent State University of Law

***Abstract.*** *This study examines a pressing socio-legal issue arising from the rapid development of information technologies and social media: cyberbullying (cyberviolence) on social networking platforms, its regulation, and mechanisms of legal liability. The research employs comparative legal analysis, an examination of national legislation and international legal instruments, as well as a study of national and foreign (European) legislative approaches. In addition, a sociological survey was conducted to determine social media users' level of awareness of the concept of cyberbullying and the measures of liability applicable to such conduct. The findings demonstrate that, under the current legislation of the Republic of Uzbekistan, online offences are primarily addressed within the framework of traditional legal provisions governing defamation, insult, and violations of personal inviolability. The article concludes by proposing scholarly and practical recommendations aimed at improving the effectiveness of efforts to combat cyberviolence, including the introduction of specific legal provisions, enhancement of the legal protection system for victims, and improvement of the population's legal awareness and legal culture.*

***Keywords:*** *cyberbullying, cyber violence, social media, legal liability, personal privacy*

### Kirish

Kiberbulling tushunchasiga koʻplab olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan turlicha ta'rif berilgan. Xususan, R. Tokunaga (2010) oʻzining *"Following you home from school: A critical review and synthesis of research on cyberbullying victimization"* nomli tadqiqotida ushbu tushunchani quyidagicha izohlaydi: "Kiberbulling – bu alohida shaxslar yoki guruhlar

tomonidan elektron hamda raqamli axborot media vositalari orqali boshqalarga zarar yetkazish yoki noqulaylik tug‘dirish maqsadida dushmanlik yoki tajovuzkor xabarlarni doimiy ravishda yuborish bilan bog‘liq har qanday xatti-harakatdir”.

UNICEF tashkilotining rasmiy manbalarida ta’kidlanishicha, “Kiberbulling – bu raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan bullingdir. U ijtimoiy tarmoqlar, xabar almashish va o‘yin platformalari hamda mobil telefonlarda sodir bo‘lishi mumkin. Bu nishonga olingan shaxslarni qo‘rqitish, g‘azablantirish yoki sharmanda qilishga qaratilgan takroriy xatti-harakatlardir” (UNICEF, 2025).

Shuningdek, tadqiqotchilar P. Smith, C. del Barrio hamda R. Tokunaga (2012) o‘zlarining *“Definitions of bullying and Cyberbullying: How Useful are the Terms?”* nomli maqolasida bulling hamda kiberbulling tushunchalarini o‘zaro solishtirib, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilganlar. Mazkur maqolada ta’kidlanishicha, “bulling” iborasi asosan anglo-sakson va Yevropa ilmiy muomalasiga oid atama bo‘lib, turli mamlakat va madaniyatlarda ushbu hodisa xilma-xil tushunchalar orqali ifodalanadi. An’anaviy bezorilik va ta’qib jahon bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib, u inson hayotining turli bosqichlarida – bolalikdan o‘smirlikka hamda balog‘at yoshiga qadar namoyon bo‘lishi mumkin. Maktab va kundalik hayotdagi an’anaviy ta’qib va bezorilik holatlari saqlanib qolayotgan bir paytda, so‘nggi yillarda internet bunday harakatlar uchun yangi platformaga aylandi (Moreno, 2014).

Texnologiyalarning arzonlashuvi va ommalashuvi natijasida raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan zo‘ravonlik holatlari jamoatchilik va ilmiy doiralar e’tiborini yanada ko‘proq jalb eta boshladi (Bauman et al., 2013). Shu ma’noda, kiberbulling – raqamli asrning og‘ir oqibatlarga olib keluvchi salbiy holatlardan biridir (Langos, 2015).

S. Hinduja va J. Patchin (2010) o‘z tadqiqotlarida kiberbulling va o‘smirlar o‘rtasidagi suitsidallik (o‘z joniga qasd qilish) harakatlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini isbotlaganlar. Bu holat onlayn zo‘ravonlikni shunchaki axloqiy muammo sifatida emas, balki shaxsning yashash huquqiga tahdid soluvchi xavfli ijtimoiy hodisa sifatida baholash va unga nisbatan qat’iy huquqiy javobgarlik mexanizmlarini belgilash zaruriyatini ko‘rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda olimlar tomonidan masalaning mohiyati bilan bog‘liq fundamental nazariy asoslar yoritilgan. Biroq zamonaviy huquq va rivojlanayotgan texnologiyalar davrida mazkur muammo yanada chuqur va aniqroq izlanishlarni talab etadi. Xususan, kiberbullingning zamonaviy namoyon bo‘lish shakllari va turlarini tahlil qilish hamda ularning oldini olishga qaratilgan ta’sirchan choralarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Shuningdek, Yevropa Kengashining Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasi va Kiberjinoyatchilik to‘g‘risidagi Budapesht konvensiyasida, shuningdek, Yevropa Ittifoqining Raqamli xizmatlar to‘g‘risidagi akti (DSA), Kiberchidamlilik to‘g‘risidagi akti (CRA) hamda Ma’lumotlarni muhofaza qilish umumiy reglamenti (GDPR) kabi xalqaro hujjatlarda inson shaxsining daxlsizligi, kiberhuquqbuzarliklarga qarshi kurashish prinsiplari va onlayn makondagi javobgarlik mexanizmlari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida, xususan, Jinoyat va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarida kiberzo‘ravonlikning ayrim elementlari va turlari uchun tegishli javobgarlik choralari nazarda tutilgan (Council of Europe, 1950; Council of Europe, 2001; European Union, n.d.; European Parliament & Council of the European Union, 2022; European Parliament & Council of the European Union, 2016).

Garchi O‘zbekiston qonunchiligida kiberbullingga qarshi kurashish bo‘yicha muayyan javobgarlik choralari nazarda tutilgan bo‘lsa-da, ushbu normalar turli qonun hujjatlarida

tarqoq holda va har xil tushunchalar ostida aks etgan. Bu esa amaldagi normalarni tartibga solish, xususan, qonunchilik darajasida aynan “kiberbulling” tushunchasini unifikatsiya qilish hamda yagona huquqiy yondashuvni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda (Potapenko, 2017). Ushbu maqolada ilgari surilgan yondashuvlar hamda erishilgan tahlil natijalari nafaqat fuqarolarning kiberzoʻravonlik sohasidagi huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, balki milliy qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan amaliy hamda ilmiy ahamiyatga egadir.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy tahlil metodi asosida xalqaro qonunchilik va xorijiy tajriba hamda milliy huquqiy bazaning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Shu bilan birga, kiberbulling tushunchasi va aholi, jumladan, universitet talabalari hamda fuqarolar (jami 200 nafar respondent) ushbu xavfning qaysi turlariga koʻproq duch kelayotganini aniqlash maqsadida sotsiologik soʻrovnoma oʻtkazildi va uning natijalari tahlil qilindi.

**Asosiy qism**

Jamiyatda kiberbulling borasida muayyan notoʻgʻri qarashlar mavjud boʻlib, ungacha ijtimoiy tarmoqlardagi kiberzoʻravonlik qurbonlari asosan oʻsmirlar va maktab yoshidagi bolalardir degan fikr ustuvorlik qiladi. Biroq ilmiy tadqiqotlar va xorijiy olimlarning izlanishlari tahlili buning aksini koʻrsatmoqda.

Shuningdek, Lucy R. Betts, A. Gkimitzoudis, K. Spenser (2017) oʻzlarining “*Examining the roles young people fulfill in five of types of cyberbullying*” nomli maqolasida kiberbulling faqat bolalarga nisbatan sodir etilmasligini, aksincha, u inson hayoti davomida uzluksiz kuzatiladigan va yosh tanlamaydigan umumiy tahdid ekanligini ta’kidlaydilar. Tadqiqotning eng muhim xulosalaridan biri shundaki, kiberbulling faqat maktab yoshidagi bolalar yoki oʻsmirlar muhiti bilan cheklanib qolmaydi. Mualliflar ushbu holatni “hayot davomida davom etuvchi fenomen” deb ataydilar va uning oʻsmirlardan tortib, oliy ta’lim talabalari hamda mehnat faoliyatini olib borayotgan kattalargacha boʻlgan barcha yosh guruhlarida namoyon boʻlishini isbotlaganlar.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbulling turli koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Xususan, N. Williard oʻzining “*Cyberbullying and Cyberthreats: Responding to the Challenge of Online Aggression, Threats, and Distress*” nomli maqolasida ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbullingning quyidagi asosiy turlarini tasniflaydi va tahlil qiladi (Willard, 2007):

– *Flaming (shiddatli bahs/haqorat)* – internetning ochiq maydonlarida qisqa, biroq oʻta tajovuzkorona va haqoratli xabarlar almashish;

– *Denigration (obroʻsizlantirish/tuhmat)* – shaxs haqida uning obroʻsiga putur yetkazuvchi yolgʻon ma’lumotlarni tarqatish va tuhmat qilish;

– *Cyberstalking (kiberta’qib)* – shaxsni ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ta’qib qilish hamda unga qoʻrqituvchi va tahdidli xabarlarni yuborish;

– *Doxing and Outing (doksing va sirlarni oshkor qilish)* – shaxsning shaxsiy yoki maxfiy ma’lumotlarini uning roziligisiz tarmoqqa joylashtirish va oshkor qilish.

Shu kabi masalani tadqiq etgan N. Bobrovnikova (2022) ham oʻzining “Кибербуллинг: виды и особенности проявления” (Kiberbulling: turlari va namoyon boʻlish xususiyatlari) nomli maqolasida kiberbullingning ushbu turlarini atroflicha tahlil qilgan. Muallif bu borada shunday ta’kidlaydi: “Kiberbullingning har bir turi an’anaviy bezorilikdan oʻzining keng qamrovliligi, tezkorligi hamda anonimlik xususiyati bilan ajralib turadi”.

Har ikki tadqiqotchining yondashuvi shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbulling yosh tanlamaydi va yuqorida keltirilgan toʻrtta tur uning eng keng tarqalgan

namoyon boʻlish shakllari hisoblanadi. Mazkur kiberbulling turlari Oʻzbekistonning raqamli makonida ham tez-tez kuzatilmoqda va ularning chastotasi yildan yilga ortib bormoqda.

Yevropa soʻnggi yillarda kiberbulling (kiberzoʻravonlik)ni huquqiy tartibga solish borasida global yetakchilardan biriga aylandi. Buni Yevropa Ittifoqi darajasida qabul qilingan Raqamli xizmatlar toʻgʻrisidagi akt (*Digital Services Act,* 2022/2023) hamda Kiberchidamlilik toʻgʻrisidagi akt *(Cyber Resilience Act*) kabi qonunchilik hujjatlari bilan izohlash mumkin (European Parliamentary Research Service, 2022; European Union, 2023).

Inson huquqlari boʻyicha Yevropa konvensiyasining (*European Convention on Human Rights*) 8-moddasiga berilgan sharhlarda ta'kidlanishicha, "shaxsiy hayot" tushunchasi insonning psixologik va ma'naviy daxlsizligini ham qamrab oladi. Bu holat kiberzoʻravonlik qurbonlarini huquqiy himoya qilish borasida davlat zimmasiga onlayn tazyiq hamda ta'qiblarga qarshi samarali kurashish boʻyicha pozitiv majburiyatlarni yuklaydi (Bentzen & Read, 2020).

Shuningdek, Kiberjinoyatchilik toʻgʻrisidagi Budapesht konvensiyasi (*Budapest Convention on Cybercrime*) ham kiberbullingga qarshi kurashishda muhim xalqaro-huquqiy hujjat hisoblanadi. Konvensiyaning 2-, 4-, 8-, 9- va 15-moddalarida kiberzoʻravonlikning turli koʻrinishlariga qarshi moddiy va protsessual normalar oʻz aksini topgan. Mazkur hujjat doirasida koʻriladigan choralar insonning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashga xizmat qilishi hamda "proporsionallik (mutanosiblik)" tamoyiliga muvofiq boʻlishi lozim (Guerra, 2016).

Ma'lumotlarni muhofaza qilish umumiy reglamenti (*GDPR*) ham, garchi asosiy e'tiborini shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga qaratsa-da, mazmunan kiberbullingdan himoya qilish mexanizmi sifatida namoyon boʻladi. Ayniqsa, *GDPR*ning 17-moddasida nazarda tutilgan "intilish huquqi" ijtimoiy tarmoqlardagi kiberzoʻravonlik qurbonlari uchun kuchli huquqiy vositadir. Ushbu norma jismoniy shaxslarga oʻzlari haqidagi obroʻsizlantiruvchi, zararli yoki tuhmat xarakteridagi ma'lumotlarni platformalardan oʻchirishni talab qilish huquqini beradi (Seger, 2011).

Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida aynan kiberbulling (kiberzoʻravonlik) tushunchasi va uning yaxlit huquqiy ta'rifi alohida norma sifatida kiritilmagan boʻlsa-da, ushbu qilmishning ayrim namoyon boʻlish shakllari uchun turli moddalar boʻyicha javobgarlik nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, 2020-yil 25-dekabrga qadar ijtimoiy tarmoqlardagi tuhmat va haqorat mazmunidagi harakatlar Oʻzbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi (MJtK) hamda Jinoyat kodeksining (JK) umumiy normalari doirasida (MJtKning 40-moddasi *"Tuhmat"*, 41-moddasi *"Haqorat qilish"*, shuningdek, JKning 139-moddasi *"Tuhmat"* va 140-moddasi *"Haqorat qilish"*) malakalab kelingan.

Biroq 2020-yil 25-dekabrda qabul qilingan OʻRQ–658-sonli "Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Oʻzbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqida"gi Qonuniga muvofiq milliy qonunchilikka muhim oʻzgartishlar kiritildi. Xususan, Jinoyat kodeksining 139-moddasi 2-qismi hamda 140-moddasi 2-qismiga "Nashr qilish yoki boshqacha usulda koʻpaytirilgan tarzda, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmogʻida joylashtirish orqali" tuhmat qilish va haqoratlash uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi maxsus kvalifikatsiya qiluvchi belgi kiritildi (Republic of Uzbekistan, 2020).


ISSN 2181-8118

Shunday qilib, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbullingning namoyon boʻlish shakllari hisoblangan tuhmat hamda haqorat qilish harakatlari Jinoyat kodeksining 139-moddasi 2-qismi hamda 140-moddasi 2-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Ayniqsa, tadqiqot davomida N.E. Williard tasnifidagi kiberbullingning muhim turlaridan biri hisoblangan "*Cyberstalking*" (kiberta'qib) harakatlari uchun Oʻzbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida maxsus va aniq belgilangan javobgarlik normasi hanuzgacha mavjud emasligi aniqlandi.

Amaliyotda ushbu turdagi huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar qilmishning xususiyatiga qarab turlicha tarqoq normalar orqali javobgarlikka tortilishi mumkin. Masalan:

– Ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning $46^{1}$-moddasi (*Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish*);

– Jinoyat kodeksining 112-moddasi (*Oʻldirish yoki zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitish*);

– Jinoyat kodeksining $141^{1}$-moddasi (*Shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligini buzuvchi ma'lumotlarni oshkor qilish*).

Biroq tahlillar shuni koʻrsatadiki, milliy qonunchilikda kiberbulling tushunchasining oʻzi huquqiy jihatdan aniq mustahkamlanmagani sababli, uning kiberta'qib kabi oʻziga xos turlari uchun ham yaxlit va toʻgʻridan toʻgʻri qoʻllanuvchi normalar yetishmaydi. Yevropa mamlakatlari tajribasida esa kiberbulling va kiberta'qib alohida huquqiy institut sifatida qonunchilikda aniq belgilangan boʻlib, jabrlanuvchilarni kompleks himoya qilish choralari amaliyotga joriy etilgan.




**1-rasm. Soʻrovnomalar natijasi**

Tadqiqot davomida yuqoridagi olimlarning nazariy va metodologik izlanishlariga tayangan holda, Oʻzbekistonda ijtimoiy tarmoqlarda kiberbulling (kiberzoʻravonlik) holatlarini oʻrganish boʻyicha soʻrovnoma oʻtkazildi (*1-rasm*). Soʻrovnoma toʻliq anonim shaklda tashkil etilib, unda jami 200 nafar respondent ishtirok etdi. Soʻrovnomaning birinchi savoli "Ijtimoiy tarmoqlarda sizga nisbatan quyidagi holatlardan (*cyberbullying*) birortasi kuzatilganmi?" tarzida shakllantirilib, u Oʻzbekiston sharoitida fuqarolar kiberzoʻravonlikning qaysi turlariga eng koʻp duch kelayotganini aniqlashga qaratildi. Natijalarga koʻra, respondentlarning 36 foizi "haqorat qilish", 20 foizi "shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz tarqatish", 17 foizi "ruxsatsiz

tarzda inson sha'ni va qadr-qimmatiga ta'sir qiluvchi fotosuratlarni tarqatish", 14 foizi "ijtimoiy tarmoqlar orqali tahdid qilish", 13 foizi esa "tuhmat" holatlariga duch kelganliklarini bildirdilar.




**2-rasm. So'rovnomalar natijasi**

Ikkinchi savol bevosita O'zbekiston aholisining kiberbulling bo'yicha huquqiy ong darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, respondentlarga "Sizga nisbatan ijtimoiy tarmoqlarda kiberbulling (kiberzo'ravonlik) holati yuz bersa, kimga yoki qayerga murojaat qilish kerakligini bilasizmi?" degan mazmunda berildi (*2-rasm*). Mazkur savolga respondentlarning 54 foizi bunday vaziyatda kimga va qayerga murojaat qilish kerakligini bilishini, 30 foizi bilmasligini, 10 foizi bu haqda umuman ma'lumotga ega emasligini, qolgan 6 foizi esa hatto buning uchun javobgarlik mavjud emas deb hisoblashini ma'lum qilgan.

**Xulosa**

Yuqoridagi kompleks tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, Yevropa mamlakatlari qonunchiligida kiberbulling va uning namoyon bo'lish shakllari aniq tartibga solingan hamda qat'iy huquqiy normalar belgilangan. O'zbekiston qonunchilik tizimida esa ushbu masalalar umumiy xususiyatga ega bo'lib, turli qonun hujjatlaridagi har xil normalar bo'yicha tarqoq holda tartibga solinadi. Bundan tashqari, kiberbullingning ayrim o'ziga xos turlari, xususan, "*Cyberstalking*" (kiberta'qib) uchun maxsus javobgarlik normasi mavjud emas. Demak, aniqlangan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Yevropa va O'zbekistonning ushbu sohadagi huquqiy bazasi o'rtasida muayyan tafovutlar saqlanib qolmoqda.

O'tkazilgan tahlillar va sotsiologik so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Qonunchilikni takomillashtirish va unifikatsiya qilish: Yevropa tajribasini chuqur tahlil qilgan holda, milliy qonunchilikka "kiberzo'ravonlik" (kiberbulling) tushunchasi va uning asosiy shakllarini qonun darajasida kiritish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi kiberzo'ravonlikka qarshi kurashish va uni tartibga soluvchi alohida maxsus qonun (yoki qonunchilikka alohida kompleks normalar bloki)ni ishlab chiqish taqozo etiladi.


ISSN 2181-8118

2. Huquqiy ong va madaniyatni oshirish: soʻrovnoma natijalari koʻrsatganidek, Oʻzbekiston aholisining salmoqli qismi ijtimoiy tarmoqlardagi haqorat va tazyiqlarga duch kelmoqda, biroq ularning aksariyati ushbu harakatlar uchun huquqiy javobgarlik mavjudligidan xabardor emas. Shu sababli aholining, ayniqsa, yoshlarning kiberbulling borasidagi huquqiy ongi va madaniyatini tizimli oshirish zarur.

Mazkur taklifning nazariy va amaliy asosi sifatida Lucy R. Betts, Athanasios Gkimitzoudis, Karin A. Spenserlarning *“Examining the roles young people fulfill in five types of cyberbullying”* nomli tadqiqotidagi xulosani keltirish mumkin. Mualliflar ta’kidlaganidek, “Kiberbullingga qarshi kurashishda faqatgina jazo choralarini kuchaytirish yetarli emas, balki jamiyatda “Raqamli fuqarolik” (*Digital citizenship*) va raqamli madaniyat tushunchasini rivojlantirish lozim” (Betts et al., 2017).

## REFERENCES

Bauman, S., Cross, D., & Walker, J. (Eds.). (2013). *Principles of cyberbullying research: Definitions, measures, and methodology*. Routledge.

Bentzen, N., & Read, H. (2020). *Cyberbullying among young people: Laws and policies in selected Member States* (Briefing PE 659.297). European Parliamentary Research Service. https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2020/659297/EPRS_BRI(2020)659297_EN.pdf

Betts, L.R., Gkimitzoudis, A., Spenser, K.A., & Baguley, T. (2017). Examining the roles young people fulfill in five types of cyber bullying. *Journal of Social and Personal Relationships*, *34*(7), 1080–1098. https://doi.org/10.1177/0265407516668585

Bobrovnikova, N.S. (2022). Kiberbulling: vidy i osobennosti proyavleniya [Cyberbullying: Types and features of manifestation]. *International Research Journal*, (11), Article 67.

Council of Europe. (1950). *European Convention on Human Rights*. European Court of Human Rights. https://www.echr.coe.int/european-convention-on-human-rights

Council of Europe. (2001). *Convention on Cybercrime* (ETS No. 185). https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list?module=treaty-detail&treatynum=185

European Parliament & Council of the European Union. (2016). *Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation)*. EUR-Lex. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj

European Parliament & Council of the European Union. (2022). *Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market For Digital Services and amending Directive 2000/31/EC (Digital Services Act)*. EUR-Lex. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2022/2065/oj

European Parliamentary Research Service. (2022). *Combating gender-based violence: Cyberviolence (Briefing PE 739.259).* European Parliament. https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2022/739259/EPRS_BRI(2022)739259_EN.pdf

European Union. (2023). *Commission Implementing Regulation (EU) 2023/1201 of 21 June 2023 laying down detailed rules for the application of Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council as regards the conduct of proceedings by the Commission.* Official Journal of the European Union, L 159, 1–27. http://data.europa.eu/eli/reg_impl/2023/1201/oj

European Union. (n.d.). *EUR-Lex: Access to European Union law*. https://eur-lex.europa.eu/homepage.html

Guerra, L. L. (2016). *European Convention on Human Rights and family life: Primary issues.* In L. L. Guerra (Ed.), *The right to family life in the European Union* (pp. 25–42). Routledge.

Hinduja, S., & Patchin, J. W. (2010). Bullying, cyberbullying, and suicide. *Archives of Suicide Research*, *14*(3), 206–221.

Kelly, M., Furey, E., & Blue, J. (2019). *GDPR Article 17: Eradicating personal identifiable information & achieving compliance in a hybrid cloud.* In *2019 30th Irish Signals and Systems Conference (ISSC)* (pp. 1–6). IEEE.

Langos, C. (2015). Cyberbullying: The shades of harm. *Psychiatry, Psychology and Law*, *22*(1), 106–123.

Moreno, M. A. (2014). Cyberbullying. *JAMA Pediatrics*, *168*(5), 500. https://doi.org/10.1001/jamapediatrics.2013.3343

Potapenko, E. G. (2017). Unifikatsiya prava: ponyatie, formy, metody (v kontekste issledovaniya unifikatsii tsivilisticheskogo protsessualnogo prava) [Unification of law: Concept, forms, methods (in the context of the study of the unification of civil procedural law)]. *News of Saratov University*, *17*(3), 344–351. https://doi.org/10.18500/1994-2540-2017-17-3-344-351

Republic of Uzbekistan. (2020, December 25). *Law "On amendments and additions to the Criminal Code, the Code of Criminal Procedure, and the Code of Administrative Responsibility of the Republic of Uzbekistan (No. LRU-658).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/-5186087

Seger, A. (2011). The Budapest Convention 10 years on: Lessons learnt. *ISPAC*, 167.

Smith, P. K., Del Barrio, C., & Tokunaga, R. S. (2012). Definitions of bullying and cyberbullying: How useful are the terms? In A. Costabile & B. A. Spears (Eds.), *Principles of cyberbullying research: Definitions, measures, and methodology* (pp. 26–40). Routledge.

Tokunaga, R. S. (2010). Following you home from school: A critical review and synthesis of research on cyberbullying victimization. *Computers in Human Behavior*, *26*(3), 277–287.

UNICEF. (2025, January 31). *Cyberbullying: What is it and how to stop it*. UNICEF Uzbekistan. https://www.unicef.org/uzbekistan/en/stories/cyberbullying-what-it-and-how-stop-it

Willard, N. E. (2007). *Cyberbullying and cyberthreats: Responding to the challenge of online social aggression, threats, and distress*. Research Press.

# O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL

2026-YIL MAXSUS SON

# ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

2026 ГОД СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

# UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL

2026 SPECIAL ISSUE

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.SI.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.